



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 5-son

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024
DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.



ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya"

"Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Olyi attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abdulyanova, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,

Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 24.10.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 12 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 152.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

I. To'raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

S. Xolboyev – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

J. Ne'matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция – Yurisprudensiya – Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:
С. Расулова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию 24.10.2024.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 12. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 152.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev, K. Abduvalieva, Y. Makhmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

The journal is submitted to the Printing house on 24.10.2024.
Paper size: A4.
Cond. p.p. 12. Unit: 100.
Order: 152.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimxonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

8 **ODILQORIYEV HOJIMUROD TO'XTAMURODOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashdagi roli va ahamiyati

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

19 **XUDAYBERGENOV BEXZOD BAXTIYOROVICH**

Qurilish pudrati shartnomasining huquqiy tabiatini bilan bog'liq xorijiy davlatlar qonunchiligi

28 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA XODJIAKBAROVNA**

Oilada mulkiy nizolarni sudgacha hal etishning alternativ vositasi sifatida oilaviy huquqiy shartnomalarning yuridik tabiatini

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

40 **RAXIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**

Mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash prinsipining ayrim jihatlari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLİSH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**

Yaroqli va yaroqsiz jinoyatga suiqasd qilish

70 **YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI**

Sog'lioni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

78 **ALISHAYEV SOBIR TURSUNBOYEVICH**

Sun'iy intellekt va tahliliy tizimlarni hukm chiqarishda qo'llash: istiqbollar va muammolar

92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**

Qalbakilashtirilgan hujatlarni va qimmatli qog'ozlarni aniqlashda e'tibor berilishi zarur bo'lgan jihatlar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 **ОДИЛКОРИЕВ ХОДЖИМУРОД ТУХТАМУРОДОВИЧ**

Роль и значение Конституционного суда Республики Узбекистан в обеспечении конституционной законности в стране

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

19 **ХУДАЙБЕРГЕНОВ БЕХЗОД БАХТИЁРОВИЧ**

Законодательство зарубежных государств относительно правовой природы договора строительного подряда

28 **САЙДИВАЛИЕВА ХУРШИДА ХОДЖИАКБАРОВНА**

Правовая природа семейно-правового договора как альтернативное средство разрешения семейных имущественных споров до суда

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

40 **РАХИМОВ МИРЁКУБ АКТАМОВИЧ**

Некоторые аспекты принципа запрещения дискриминации в сфере труда и занятий

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

54 **КАМАЛОВА ДИЛДОРА ГАЙРАТОВНА**

Годное и негодное покушение на преступление

70 **ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМ КИЗИ**

Правовые аспекты обеспечения безопасности персональных данных в сфере здравоохранения

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

78 **АЛИШАЕВ СОБИР ТУРСУНБОЕВИЧ**

Применение искусственного интеллекта и аналитических систем при вынесении приговора: перспективы и вызовы

92 **ШОНАЗАРОВ АБДУВАЛИ ШОНАЗАРОВИЧ**

Аспекты, которые необходимо учитывать при обнаружении поддельных документов и ценных бумаг

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

8 **ODILQORIEV KHOJIMUROD TUKHTAMURODOVICH**

Role and significance of the Constitutional court of the Republic of Uzbekistan in ensuring constitutional legality in the country

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

19 **KHUDAYBERGENOV BEHZOD BAKHTIYOROVICH**

Legislation of foreign countries on the legal nature of the construction contract

28 **SAYDIVALIEVA KHURSHIDA KHODJIAKBAROVNA**

The legal nature of family-legal contracts as an alternative means of pre-trial solution of property dispute in the family

12.00.05 – LABOR LAW. THE LAW OF SOCIAL SECURITY

40 **RAKHIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**

Some aspects of the principle of prohibition of discrimination in the field of work and training

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**

Viable and unviable attempt to commit a crime

70 **YUSUPOVA FARINGIZ UKTAM KIZI**

Legal aspects of ensuring the security of personal data in the field of healthcare

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. CRIMINOLOGY, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

78 **ALISHAEV SOBIR TURSUNBOEVICH**

Application of artificial intelligence and analytical systems for sentencing: prospects and challenges

92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**

Aspects to consider when detecting fake documents and securities

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.10.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.10.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.10.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5./BDHC6188

UDC: 342.4(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDINING MAMLAKATDA KONSTITUTSIYAVIY QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI VA AHAMIYATI

Odilqoriyev Hojimurod To'xtamurodovich,
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya
tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0003-1417-7854
e-mail: domla5@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida Konstitutsiyaviy sudning berilgan yangi vakolatlar doirasida Oliy Majlis palatalariga va Prezidentga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning amaliyoti va holati bo'yicha axborot taqdim etish institutining mohiyati, mazmuni hamda xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashdagi roli va ahamiyati juda muhimdir. Ushbu sud Konstitutsiya ustuvorligini saqlash maqsadida barcha qonun va hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini tekshiradi. Sud davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar va qonunlarning konstitutsiyaviligidini baholaydi, bu orqali ularning muvofiqligini nazorat qiladi va zarur bo'lsa, Konstitutsiyaga zid bo'lgan hujjatlarni bekor qiladi. Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, huquqiy tartibni saqlash vaadolatni ta'minlash orqali davlat va jamiyat o'rtaсидаги qonuniylikni kuchaytiradi. Sudning qarorlari mamlakatdagi huquqiy tizimning ishonchliligin oshiradi, qonunlarning samaradorligini ta'minlaydi va jamiyatda konstitutsiyaviy qadriyatlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud davlat va fuqarolar o'rtaсидаги nizolarni hal qilishda hamda qonuniylik va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Maqolada konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiyaviy sud, konstitutsiyaviy qonuniylik, konstitutsiyaviy qonun, konstitutsiyaviy qonunchilik, Konstitutsiya muhofazasi yuzasidan axborot, qonuniylikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlari, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОНСТИТУЦИОННОГО СУДА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНСТИТУЦИОННОЙ ЗАКОННОСТИ В СТРАНЕ

Одилкориев Ходжимурод Тухтамуродович,
доктор юридических наук, профессор,
ведущий научный сотрудник
Научно-исследовательского института
криминологии Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проведён научный анализ сущности, содержания и особенностей института предоставления палатам Олий Мажлиса и Президенту информации о практике и состоянии конституционной законности в стране в рамках новых полномочий, delegированных Конституционному суду в ходе конституционной реформы. Роль и значение Конституционного суда Республики Узбекистан в обеспечении конституционной законности в стране чрезвычайно важны. Данный суд проверяет конституционность всех законов и актов с целью сохранения верховенства Конституции. Суд оценивает конституционность решений и законов, принятых государственными органами, посредством чего контролирует их соответствие и при необходимости отменяет неконституционные документы. Конституционный суд также укрепляет законность между государством и обществом, защищая конституционные права граждан, поддерживая правопорядок и обеспечивая справедливость. Решения суда повышают надёжность правовой системы страны, обеспечивают эффективность законов, укрепляют доверие общества к конституционным ценностям. В то же время Конституционный суд играет важную роль в разрешении споров между государством и гражданами, а также в обеспечении законности и стабильности. Автором статьи выдвигаются предложения и рекомендации, направленные на совершенствование правовых механизмов обеспечения конституционной законности.

Ключевые слова: Конституционный суд, конституционная законность, конституционное право, конституционное законодательство, информация об охране Конституции, правовые механизмы обеспечения законности, Конституция и верховенство закона

ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE CONSTITUTIONAL COURT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN ENSURING CONSTITUTIONAL LEGALITY IN THE COUNTRY

Odilqoriev Khojimurod Tukhtamurodovich,
Leading researcher of the Criminology Research
Institute of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Science in Law, Professor,

Abstract. The article scientifically analyzes the essence, content, and features of the institution of providing information to the chambers of the Oliy Majlis and the President on the practice and state of constitutional legitimacy in the country within the framework of the new powers granted to the Constitutional Court in the process of constitutional reforms. The role and significance of the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan in ensuring the constitutional legality of the country is very important. This court checks the compliance of all laws and acts with the Constitution in order to maintain the supremacy of the Constitution. The court assesses the constitutionality of decisions and laws made by state bodies, thereby controlling their compliance and, if necessary, canceling unconstitutional acts. The Constitutional Court also strengthens the legitimacy between the state and society by protecting the constitutional rights of citizens, maintaining legal order, and ensuring justice. Court decisions increase the credibility of the country's legal system, ensure the effectiveness of laws, and strengthen public trust in constitutional values. At the same time, the Constitutional Court plays an important role in resolving disputes between the state and citizens, as well as in ensuring legality and stability. The article proposes proposals and recommendations aimed at improving the legal mechanisms for ensuring constitutional legitimacy.

Keywords: Constitutional Court, Constitutional legitimacy, constitutional law, constitutional legislation, information on the protection of the Constitution, legal mechanisms for ensuring legality, the Constitution and the rule of law

Kirish

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi principini kundalik hayotimizning qat'iy talabiga aylantirish va shu asosda qonuniylikni mustahkamlash o'ta dolzorb masalaga aylandi. Konstitutsiyaviy qonuniylik mamlakatda yalpi qonuniylik muhitini ta'minlashning eng oliv shakli bo'lib, Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlarning hayot (amaliyat)ga to'la-to'kis joriy etilishi, ularga barcha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qat'iy va so'zsiz rioya etilishi ta'minlanganligini anglatadi. Konstitutsiyaviy huquq fani nuqtayi nazaridan qaraganda, "konstitutsiyaviy qonuniylik" va "konstitutsiyaviy qonunchilik" terminlari bir-biridan farq qiladi. Agar "konstitutsiyaviy qonuniylik" Konstitutsiya hamda konstitutsiyaviy qonunlarni hayotga qat'iy joriy etish (qo'llash, amalga oshirish)ni nazarda tutsa, "*konstitutsiyaviy qonun*" – birinchidan, Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kirituvchi qonunlar, ikkinchidan, asosiy qonunning predmeti doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha alohida tartibda qabul qilinadigan qonunlar yig'indisidir [1]. Ularni qabul qilish uchun aksariyat mamlakatlarda parlament to'liq tarkibining uchdan ikki qismini tashkil etuvchi deputatlar (a'zolar)ning ovoz berishi talab qilinadi [2]. Demak, "konstitutsiyaviy qonunchilik" deganda Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlarning yig'indisi tasavvur qilinishi lozim.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy izlanishning obyekti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati va vakolatlarini nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etishdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar tufayli sud hokimiyati ushbu tuzilmasining huquqiy maqomi va nufuzi yangi bosqichga ko'tarilib, uning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Maqolaning maqsadi Konstitutsiyaviy sud vakolatlarini amalga oshirishga doir yangi konstitutsiyaviy norma va mexanizmlar-

ning ilmiy hamda amaliy jihatlarini nazariy asoslashdan iborat. Belgilangan maqsadlarga erishish uchun izlanish jarayonida dialektika, tarixiy-mantiqiy hamda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy analiz va sintez kabi metodlardan foydalanildi.

Muallif mamlakat Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini, konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirishda uning yangi vakolatlarini hayotga joriy etishning ilmiy-amaliy mexanizmlarini kompleks tadqiq etishga harakat qildi. Shuningdek, bu borada uchrayotgan muammo hamda munozarali vaziyatlarni hal etishga doir taklif va tavsiyalarni shakllantirdi. Bunda u konstitutsiyaviy-huquqiy eksperiment, modellashtirish va prognozlash metodlariga tayandi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi loyihasi ustida ishslash, uni qabul qilish jarayonining barcha bosqichlarini qamrab olgan konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida Konstitutsiyaviy sud vakolatlarining kengayishi tendensiyasi kuzatildi. Bunda, xususan, Konstitutsiyaviy sudning mamlakatda konstitutsiyaviy odil sudlovni ta'minlash, konstitutsiyaviy qonunchilik tizimining rivojlanishi, konstitutsiyaviy qonunchilikni mustahkamlash, uning huquqiy kafolatlarini yanada kuchaytirish, konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarni yanada mukammallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Avvalo, fanimiz va amaliyotimizda nisbatan yangi ilmiy kategoriya (fenomen, voqelik) bo'lmish "konstitutsiyaviy qonuniylik", "konstitutsiyaviy qonun" va "konstitutsiyaviy qonunchilik" mohiyati, mazmuni hamda ilmiy ta'rifini izohlashga harakat qilindi.

Professor Y.A. Tixomirov "Konstitutsiyaviy qonunlar qonunchilik tizimining ustuvor, muhim sohasi bo'lib, qolgan barcha qonunchilik tarmoqlarini yagona tizimga uyshtirish va uyg'unlashtirish funksiyasini bajardi", [3, 4] – deydi.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuning

9-moddasiga binoan, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini nazarda tutuvchi qonunlar konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinadi".

"Konstitutsiyaviy qonun" ilmiy kategoriya sifatida O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi (1988-y.) hamda Konstitutsiyaviy sud (1995-y. 21.XII.) institutlari joriy etilgan davrlardan boshlab iste'molga kirdi. Biroq u shu chog'gacha konstitutsiyaviy huquqqa oid tadqiqotlarda va yuridik amaliyotda keng qo'llanmay, o'zining tegishli talqinini topmay keldi. Rasmiy hujatlarda ham ushbu ibora deyarli tilga olinmadni.

Tadqiqot natijalari tahlili

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish predmeti nuqtayi nazaridan qaraganda, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlash prinsipini hayotimizga izchillik bilan joriy etish muttasil dolzarblik kasb etib bormoqda. Bu birinchi navbatda Konstitutsiyaviy qonunlar tizimini takomillashtirishni, konstitutsiyaviy qonunchilikni mustahkamlash va "konstitutsiyaviy qonuniylik" muhitini qoror toptirishni nazarda tutadi.

Professor Y.A. Tixomirovning fikricha, konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakat qonunchilik tizimining muhim manbayi, konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining "normativ yadrosi", davlat qurilishi va hokimiyat organlari faoliyatining prinsiplarini, inson (fuqaro) ning huquqiy maqomini belgilovchi, fuqarolik jamiyati hayotining asosiy jabhalarini tartibga soluvchi va huquqiy tizimni yaratuvchi alohida tarmog'idir, u huquqiy tizim yaxlitligini ta'minlaydi [3; 4].

Professor R.Q. Qayumov talqinicha, konstitutsiyaviy qonunlar Konstitutsiya normalariga aniqlik kiritish, ularni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgandir, ular muhim masalalarni huquqiy tartibga soladi [5].

Yuridik fanlar doktori A. G'ofurov o'z dissertasiyasida konstitutsiyaviy nazorat institutini kompleks tadqiq etib, uning konstitutsiyaviy odil sudlovnii ta'minlash, konstitutsi-

yaviy qonuniylikni mustahkamlashdagi o'rni va rolini isbotlashga intilgan [6].

2017-yil 31-mayda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarda Konstitutsiyaviy sudning vakolatlarini kengaytirish nazarda tutildi. Mazkur qoidalar "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda ham mustahkamlandi. Jumladan, o'sha davrda amalda bo'lган Konstitutsianing 109-moddasida hamda "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi (1995-yil) Qonunning tegishli moddasida Konstitutsiyaviy sudning quyidagi to'rtta vakolati mustahkamlangan edi:

1) qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qabul qilgan boshqa hujjalarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat qarorlarining, davlat hokimiyyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarning normalariga sharh beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

Amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar tufayli Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari yettitagacha kengaytirildi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:

1) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va far moyishlarining, hukumat, mahalliy davlat ho-

kimiyyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining muayyan ishda qo'llanishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqadi;

6) konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolati doirasida boshqa ishlarni ko'rib chiqadi.

Ana shu vaqtan boshlab asosiy qonunimizda hamda Konstitutsiyaviy sudning huquqiy maqomini belgilovchi rasmiy qonunchilikda "konstitutsiyaviy qonuniylik" iborasi o'zining yuridik e'tirofini topdi. Konstitutsiyaviy sudning mazkur vakolati yangi tahrirdagi Konstitutsyaning 133-moddasida mustahkamlangan. Endi ushbu moddaga Kons-

titutsiyaviy sudning yana bir yangi vakolati – referendumga chiqarilayotgan masalalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida xulosa berish ham kiritildi.

Garchand Konstitutsiyaviy sud o'zining so'nggi yillardagi faoliyatida konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash bo'yicha muayyan ishlarni bajargan bo'lsa-da, ammo mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risidagi Axborotni taqdim etish vakolatini ilk bor 2023-yil 5-dekabrda, ya'ni ushbu vakolat Konstitutsiyada mustahkamlanganidan keyin 6 yil o'tgach, amalga oshirdi.

Ta'kidlash joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsyaning qabul qilinishi davlat va jamiyat hayotini yanada jadal rivojlantirish hamda modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalişlari, davlat hokimiyati, ijtimoiy-siyosiy institatlarning faoliyatini tashkil etishga oid yangicha yondashuvlarni belgilab, mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylik muhitini yanada mustahkamlash, bunda Konstitutsiyaviy sudning nufuzi va o'rnnini keskin kuchaytirishda jiddiy huquqiy asos bo'ldi.

Mazkur islohotlar tufayli Konstitutsiya xalq hokimiyatchiligi prinsipini ifodalashning yorqin ko'rinishi sifatida eng oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonun, legitim hujjat ekanligi ta'kidlanib, davlat organlarining faoliyatini demokratlashtirishga, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlar (mexanizmlar) yaratildi. Xususan, Konstitutsiyamizda O'zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, qator yangi bob va moddalar bilan boyitildi. "Umuman olganda, – deb ta'kidlaydi professor I. Tulteyev, – Konstitutsiyani yangilashga yo'naltirilgan tub islohotlar butun konstitutsiyaviy qonunchilik tizimining modernizatsiya qilinishini hamda konstitutsiyaviy qonuniylik mohiyatini anglatadi" [7].

Asosiy qonunimizda qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, qonuniylik va birdamlilik prinsiplarini joriy etishning, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Yangi tahrirdagi bosh qonunda "Konstitutsiya – oliy yuridik kuchga ega" ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud tizimini takomillashtirish, uning huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida bevosita hamda so'zsiz qo'llanishiga erishishning konstitutsiyaviy kafolatlari belgilandi.

Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash, uning muhofazalash mexanizmida Konstitutsiyaviy sudning o'rni va rolini yanada kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatlar joriy etildi. Ushbu konstitutsiyaviy novellalar, albatta, tahsinga loyiq, ammo asosiy e'tiborni yangi konstitutsiyaviy prinsip, norma va qoidalarning amaliy hayotga tatbiq etilishiga qaratish muhimdir. Ma'lumki, konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirish, konstitutsiyaviy tuzumni har qanday tahdid va tajovuzlardan asrash, konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy odil sudlov (konstitutsiyaviy yustitsiya) mamlakat hududida sud hokimiyatini namoyon etuvchi maxsus vakolatli organ tomonidan barcha qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatlardir. Konstitutsiyaviy sud tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning mohiyati shundaki, bunda mazkur organ o'z tashabbusi yoki muayyan xabar asosida Konstitutsiyaga zid bo'lgan hujjatlarni aniqlaydi, ishni o'rnatilgan protsessual tartibda ko'rib chiqadi hamda g'ayrikonstitutsiyaviy deb topilgan hujjatni bekor qilish borasida xulosa chiqaradi [8].

Dunyo tajribasida konstitutsiyaviy nazorat funksiyasini keng va cheklangan ko'lamda talqin etish amaliyoti (yondashuvlar) mavjud. Keng talqingga muvofiq, Konstitutsiyaviy sudlar vakolatlari doirasiga *siyosiy ixtiologlarni, inqirozlarni* (masalan, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, siyosiy tangliklar va qarama-qarshilik holatlarini bartaraf etish, shunday vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda *hakamlik* vazifasini o'tash*, shuningdek, siyosiy partiylar faoliyatini cheklash, konstitutsiyaviy tuzum barqarorligiga qarshi chiquvchi (putur yetkazuvchi) diniy mazmundagi partiylar tuzilishiga qat'iy qarshi munosabat bildirish va h.k.) va *huquqiy, konstitutsiyaviy mazmundagi* nizo hamda keskinliklarning yechimini topish vazifasi kiradi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Fransiya, Sloveniya va boshqa qator mamlakatlarning Konstitutsiyaviy sudlari o'z faoliyatida ham siyosiy, ham huquqiy masalalarni ko'rib, xulosa berish, ularga siyosiy-huquqiy yechim topish vakolatiga ega. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga faqat *huquqiy mazmundagi* masalalarni ko'rib, xulosalar berish, munosabat bildirish vakolati berilgan xolos.

Mustaqilligimizning dastlabki o'ttiz yilda amal qilgan Konstitutsiyaning avvalgi 83-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyating barcha respublika darajasidagi tuzilmalari, shu jumladan, Konstitutsiyaviy sud Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi tarzida qonun loyihasini kiritish huquqiga ega edi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 98-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy Sudi va Bosh prokurori o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga ega". Masalan, Konstitutsiyaviy sud

* 1993-yil oktabr oyida Rossiya Federatsiyasi parlamenti va ijro hokimiyati (Prezident – Hukumat) o'rtasida siyosiy nobarqarorlik, qarama-qarshilik holati vujudga keldi. Masala qurolli to'qnashuvgacha borib yetgan chog'da Konstitutsiyaviy sud (raisi V.D. Zorkin) ikki hokimiyat tarmoqlari o'rtasida hakamlik qilib, ularni siyosiy-huquqiy yechimga keltirdi, natijada konstitutsiyaviy tuzum saqlab qolindi, hokimiyat tarmoqlari o'rtasida konstitutsiyaviy muvozanat ta'minlandi.

fuqarolik, ma'muriy, iqtisodiy, jinoiy ishlarni ko'rmaydi. Demak, uning vakolat doirasi Konstitutsiyada belgilangan masalalar ko'lamni bilan cheklangan. U faqat o'z vakolatiga ta-alluqli masalalar yuzasidangina qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanadi.

Konstitutsiyaviy sudning biz tahlil etayotgan parlament palatalari va Prezidentga axborot taqdim etish "vakolati" ham xorijiy mutaxassislar nigohida bahsli va munozarali mavzudir. Aksariyat mutaxassis va ekspertlar Konstitutsiyaviy sud zimmasiga bunday vazifani yuklash hokimiyatlar taqsimplanishi prinsipi mazmuniga zid deb hisoblaydilar. Shu bois Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Avstriya va boshqa mamlakatlarning Konstitutsiyaviy sudlari parlament va boshqa davlat organlariga *murojaat* yo'llash huquqidan foydalanadilar. Ushbu amaliyot ancha mantiqli ko'rindi.

Nima bo'lganda ham, yangilangan Konstitutsiyamizning 133-moddasi 7-bandida Konstitutsiyaviy sudning har yili parlament palatalari va Prezidentga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylilikning holati to'g'risida *axborot taqdim* etishi belgilangan. Shundan kelib chiqib, Konstitutsiyaviy sudning 2023-yil yakunida taqdim etgan axborotining mazmunini tahlil qilib ko'raylik.

Mazkur "Axborot" to'rt qismdan iborat:

I. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va konstitutsiyaviy islohotlar.

II. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini hayotga tatbiq etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.

III. Konstitutsiyaviy sud tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qo'llash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

IV. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini to'g'ridan to'g'ri qo'llash, uni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar va takliflar.

Birinchi qismda mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining qabul qiliniligi va amalga oshirilgan konstitutsiyaviy

islohotlar qo'llab-quvvatlangan. Konstitutsiya gaga kiritilgan yangi g'oyalari, prinsiplar, normalar, tushunchalar, huquqiy mexanizmlar va qoidalar e'tirof etilgan. Shu asnoda Konstitutsiyaviy sud fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish mexanizmlari mazmun-mohiyatini ochish choralarini ko'rish, shuningdek, dunyoviy davlatni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, uni qonun darajasida qabul qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi (fikrimizcha, mazkur masalar nihoyatda muhim bo'lsa-da, ular Konstitutsiyaviy sud "Axboroti"ning predmetiga oid mavzular bo'lmasa kerak).

Ikkinci qismda Konstitutsiyani hayotga tatbiq etish va konstitutsiyaviy qonuniylilikni ta'minlash, asosiy qonunning reguliyativ (tartibga soluvchi) rolini to'liq ro'yobga chiqarish muhimligi ta'kidlangan. Barcha toifadagi sudlar tomonidan Konstitutsiyaga tayanib, unga bevosita havolalar qilib, 22 515 ta hujjat chiqarilganiga urg'u berilgan. Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyada belgilangan normalar huquq ijodkorligi subyektlari tomonidan yangi qonunchilik hujjatlarini qabul qilish orqali yanada rivojlantirilishi lozim, deb hisoblaydi. Xususan, Konstitutsiya yangilanganidan so'ng 30 dan ziyod qonun va qonunosti hujjatlari unga muvofiqlashtirildi. Konstitutsiyaviy sudning bu boradagi pozitsiyasi shunday: "Konstitutsiya normalari tegishli qonun va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan yoki mavjudligidan qat'i nazar amal qiladi. Bunda u yoki bu masala bo'yicha normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinmaganligi Konstitutsiyaning tegishli normasini qo'llashni rad etish uchun asos bo'la olmaydi".

Konstitutsiyaviy sud barcha davlat organlari, vazirlik va idoralarning e'tiborini qonunchilikni Konstitutsiyaga muvofiqlashtirishda faqatgina unga zid bo'lgan normalarni qayta ko'rib chiqish emas, balki ularni *Konstitutsiyaga mazmunan (mohiyatan)* moslashtirish zarurligiga qaratadi.

Shuningdek, davlat rahbarining 2023-yil 7-noyabrdagi PF-188-sonli farmoni asosida

Prezidentning qator hujjalariiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ta'kidlanadi.

"Axborot"ning *uchinchchi qismida* Konstitutsiyaviy sud tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qo'llash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili bayon etiladi. Bunda konstitutsiyaviy odil sudlov orqali huquqiy tizim sifati yaxshilanadi, huquqiy davlatning fundamental qadriyatlari kafolatlanadi, Konstitutsianing ustuvorligini ta'minlashga erishiladi, deyiladi. Har bir shaxsning konstitutsiyaviy shikoyat (murojaat)lar orqali konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish huquqi ta'minlanshi ta'kidlangan. Xususan, 2022-2023-yillarda jami 2850 nafar fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilgan. Ko'rsatilgan yillar mobaynida Konstitutsiyaviy sud tomonidan konstitutsiyaviy nazorat tartibida 119 ta qonun va 1384 boshqa normativ-huquqiy hujjalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi tekshirilgan.

Tegishli tahlillar asosida Konstitutsiyaviy sud mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylikni yanada mustahkamlashda vakolatlari davlat organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish yo'lidan borishi ta'kidlanadi.

To'rtinchi qismida sud hokimiyatining mazkur tuzilmasi Konstitutsiyani to'g'ridan to'g'ri (bevosita) qo'llash, aholini tashvishga solayotgan sohalarda, jumladan, xususiy mulk muhofazasi kafolatlari, bola huquqlari buzilishini bartaraf etish (oldini olish choralarini belgilash), tadbirkorlarning huquqlari kafolatlarini kuchaytirishga e'tibor qaratilishini nazarda tutib, hukumatni va mas'ul tashkilotlarni aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishning tezkor choralarini ko'rib borishga chaqiradi. Konstitutsiyaviy sud unga murojaat etish institutidan foydalanib, Oliy Sudga ushbu muhim mexanizm orqali odil sudlovnvi amalga oshirishda konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash choralarini ko'rishni tavsiya etadi [9-12].

Konstitutsiyaviy sud Prezidentning PQ-300-sonli qarorida belgilangan tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish

masalasini ko'rib chiquvchi alohida tergov sudyalari institutini joriy etish, ushbu jaryaylonni jadallashtirish hamda tergov sudyalarini o'qitish va malakasini oshirib borish bo'yicha alohida tizimni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi.

Konstitutsiyaviy sud viloyat, tuman (shahar) sudyalarining tegishli xalq deputatlari Kengashlari oldida axborot berish amaliyoti sudyaning mustaqilligi va xolisligiga raxna solishi mumkinligini inobatga olib, vakolatlari davlat organlarini ushbu amaliyotni bekor qilishga chaqiradi.

Konstitutsiyada ilk marotaba davlat jabrlanganlarga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilandi. Aholidan kelib tushgan takliflardan kelib chiqib, alohida jinoyatlar, birinchi navbatda, firibgarlik bo'yicha jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda sudlanuvchi tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan zararning qoplanganligini inobatga olish talabini qonunchilikka kiritish orqali jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha dastlabki qadamlarni tashlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi [13].

Konstitutsiyaviy sud dastlabki (ex-ante) konstitutsiyaviy nazorat tartibida *konstitutsiyaviy qonunlar*, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish vakolatiga ega [14].

Biroq qonunchilikda ushbu institutni amalga oshirish tartibi va mexanizmlari belgilab berilmaganini inobatga olib, shuningdek, qonunchilikda huquqiy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik maqsadida Konstitutsiyaviy sud Oliy Majlis palatalariga ushbu institutni amalga oshirish tartibini belgilashni tavsiya etadi [15].

Konstitutsiyaviy sud Adliya vazirligi, Oliy Majlis palatalari bilan birgalikda Konstitutsiya, qonun va qonunosti hujjalari normalariiga sharh berish uslubiyatini ishlab chiqishni taklif qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjalarni qabul

qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari e'tiborini ular normativ-huquqiy hujjatlar lo-yihalarini tayyorlash va qabul qilish jarayonida Konstitutsiya, uning normalari, prinsiplari va g'oyalari ustunligidan kelib chiqishlari lo-zimligiga qaratadi [16].

Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud barcha davlat organlarini Konstitutsiyani amalga oshirish va mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashda mas'uliyatni to'la-qonli his qilishga, shu jumladan, o'z faoliyatida fuqarolarning Konstitutsiyada kafolatlan-gan huquq va erkinliklarining cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka, konstitutsiyaviy huquqlar buzilishining har qanday holatlari bo'yicha tezkor va qat'iy choralarini ko'rib borishga chaqiradi.

Zero, faqat barcha davlat organlarining konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlari mamlakatda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qad-riyat ekanligi to'g'risidagi umuminsoniy prin-siplarning amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Xulosalar

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada odil sudlovni ta'minlovchi davlat hokimiyatining alohida tarmog'i sifatida sud hokimiyatining roli va mustaqilligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu o'z navbatida, huquqiy davlatchilik, Konstitutsiya va huquq ustuvor-lici, konstitutsiyaviy qonuniylik hamda huquq-tartibotni ta'minlash va fuqarolarning sud himoyasida bo'lishga oid konstitutsiya-viy huquqlarini amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

2. Konstitutsiyaviy odil sudlovni izchil hamda samarali yo'lga qo'yish orqali mam-lakatdagi butun huquqiy tizimning harakatlanish sifati yaxshilanadi; demak, ijtimoiy-huquqiy davlat uchun muhim bo'lgan fundamental qadriyatlarni kafolatlovchi hamda be-vosita amal qiluvchi normativ-huquqiy hujjat tarzida Konstitutsiyaning ustunligi va huquqiy himoyasi sud tartibida ta'minlanadi.

3. Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekis-

ton Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining parlament palatalari va Prezidentga "Axborot" taqdim etish vazifasi tariximizda ilk bora amalga oshirilgani bois u hali sud hokimiyati-ning yetarli talablar darajasidagi mukammal hujjati (ko'rinishiga) sifatiga ega bo'la olmadi. Boshqacha aytganda, ba'zi nuqsonlardan xoli emas, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, uning mazmunida siyo-siy konyunkturaga me'yordan ziyod berilish, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, konstitutsiyaviy islohot-lar natijalariga tahsin aytib, mulozamat qiliш (madh etish), mammunlik bildirish kabi mulohazalarni qisqartirib, asosiy e'tiborni konstitutsiyaviy qonuniylikka oid tadbirlar tahlili, tegishli amaliyotni umumlashtirish va unga asoslangan axborotni, xulosalarni bayon etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, hujjatda turli davlat idoralari, fuqaro-lik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalariga yo'naltirilgan "chaqiriqlar", "istaklar", "tavsiya" va "takliflar" ko'proq o'rinn egallagan. Natijada "Axborot"ning asl maqsadiga, ma'no-mazmunini ochish be-rishga, ijtimoiy-yuridik missiyasiga, ko'zlan-gan maqsadga yetarlicha to'la erishilmagan. Kelgusida ushbu muhim hujjatning axborot-tahliligi, tanqidiy ruhga, konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashga oid huquqiy mexa-nizmlarni qo'llash amaliyoti tahliliga e'tibor jiddiy tarzda kuchaytirilishi zarur, deb o'y-laymiz.

4. Yuridik adabiyotlarda konstitutsiyaviy odil sudlov muammolarini, uni yanada fa-ollashtirish masalalarini chuqurroq tadqiq etish lozimligi ta'kidlanmoqda. Agar ilgarigi davrda Konstitutsiyaviy sud passiv va erin-choqlik bilan harakatlangan bo'lsa, endilikda uning vakolatlari kengayishi bu sudning jid-diy faollashuviga sabab bo'ldi [14].

5. Konstitutsiyaviy sud fuqarolar va yu-ridik shaxslarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish institutini fuqarolar uchun yanada qulay qilishi, ularning konstitutsiya-viy-huquqiy ongi va madaniyatini oshirishi,

konstitutsiyaviy sud ish yurituvi doirasida fuqarolarga malakali yuridik yordam ko'rsatish masalalari ustida ishlashi ham ushbu institutting mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniyligini yanada mustahkamlashga hamda vakolatli davlat organlari bilan bu boradagi hamkorlikni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi, deb o'yaymiz.

6. Sudlarga muayyan ishda qo'llanishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida Oliy Sud orqali Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish vakolatining berilishidan kelib chiqib, zamonaviy o'zbek konstitutsionalizmini rivojlantirishning ushbu muhim yo'nalishiga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mazkur institut sudlar faoliyatida u yoki bu normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaviy-huquqiy mazmunini asossiz toraytirib yoki kengaytirib qo'llash ehtimolining oldini oladi, shu orqali konstitutsiyaviy qonuniyligini mustahkamlash, fuqarolarning odil sudlovga erishish, sud himoyasida bo'lish kabi konstitutsiyaviy huquqlarining samarali

amalga oshirilishini ta'minlashi mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, sudlar tomonidan ushbu vakolatdan hozirga qadar foydalanilmaganligi uning samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choralarini ko'rish, xususan, ushbu vakolatni amalga oshirish tartibiga oid huquqiy asoslarni ishlab chiqish zarurati dan dalolat beradi. Shu bois Konstitutsiyaviy sud ushbu muhim konstitutsiyaviy institutni amalga oshirish tartib-taomillarini batafsil tartibga soluvchi huquqiy asoslarni ishlab chiqish va shu orqali odil sudlovni amalga oshirishda konstitutsiyaviy qonuniyligini ta'minlash choralarini ko'rishni tavsiya etadi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi o'zining yangi tahrirdagi Konstitutsiya va qonunda mustahkamlab qo'yilgan barcha vakolatlarini sobitqadamlik bilan amalga oshira borib, konstitutsiyaviy-huquqiy siyosatning hayotimizga izchil joriy etilishiga, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashga, mamlakatimizda konstitutsiyaviy qonuniylikning yanada mustahkamlanishi salmoqli hissa qo'shishi mumkin.

REFERENCES

1. Odilqoriyev X.X. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi [Legal system of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2008, pp. 49–50.
2. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Legal encyclopedia of Uzbekistan]. Tashkent, 2010, p. 255.
3. Tixomirov Yu.A. Razvitie teorii konstitutsionnogo prava [Development of the theory of constitutional law]. *State and Law*, 1998 vol. 7, p. 11.
4. Tixomirov Yu.A. Sistema konstitutsionnogo zakonodatelstva [The system of constitutional legislation]. *Legislation and economics*, 1999, vol. 6.
5. Qayumov R.Q. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi [Constitutional right of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1998, p. 35.
6. G'ofurov A. O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat [Constitutional control in Uzbekistan]. Tashkent, 2022, pp. 13–14.
7. Tuleyev I. Modernizatsiya konstitutsionnogo zakonodatel'stva Uzbekistana: nekotoryye itogi i perespektivy [Modernization of constitutional legislation of Uzbekistan: some results and prospects]. *Bulletin of the Uzb. Res MIA Academy*, 2013, vol. 4, p. 15.
8. Odilqoriev X.T. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi [The dream of a constitution and a perfect society]. Tashkent, 2012, p. 400.

9. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir [The Constitution and the rule of law are the most important criteria of a legal democratic state and civil society]. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the ceremony dedicated to the 27th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/3119>

10. Voronovich T.V. Konstitutsionnaya kul'tura: rol' konstitutsionnogo pravosudiya v yevo formirovaniy [Constitutional culture: the role of constitutional justice in its formation]. *Bulletin of the Constitutional Court of the Republic of Belarus*, 2011, vol. 2.

11. Islamov Z.M. Konstitutsiya va huquq ustunligi prinsipi [Constitution and the principle of supremacy of law]. Tashkent, 2013.

12. Abduqodirov R.V. Shaxsiy mas'uliyat, mustahkam intizom va tashabbuskorlik – samarali mehnat poydevori [Personal responsibility, strong discipline and initiative are the foundations of effective work]. *New Uzbekistan*, 2021, no. 44. Available at: <https://yuz.uz/news/shaxsiy-masuliyat-mustahkam-intizom-va-tashabbuskorlik--samarali-mehnat-poydevori/>

13. Shermatov Sh. Ijro intizomi – joylardagi islohotlar samaradorligining asosiy omili [Implementation discipline is a key factor in the effectiveness of local reforms]. *New Uzbekistan*, 2021. Available at: <https://yuz.uz/file/newspaper/04ca0de1ea0f55195ba8a7a3020ad810.pdf/>

14. Sharaxmetov Sh. Shaxsiy mas'uliyat va mustahkam ijro intizomi — davlat organlari samarali faoliyatining muhim omili [Personal responsibility and strong executive discipline are important factor in the effective operation of state bodies]. *New Uzbekistan*, 2021, no. 193. Available at: <https://antimon.gov.uz/uzb/shahsij-masuliyat-va-mustahkam-ijro-intizomi-davlat-organlari-samarali-faoliyatining-muhim-omili/>

15. Mazzone J. The Creation of a Constitutional Culture. *Tulsa Law Review*, 2005, no. 40.

16. Konstitutsiyaviy huquq [Constitution law]. Tashkent, TSUL Publ., 2024.

17. Husanov O. Konstitutsiyaviy huquq [Constitution law]. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2023.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 5-SON

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.